“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Huquqiy himoya va gender zo‘ravonlik: milliy va xalqaro tajriba

Rayhona Abrikulova,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
1-kurs talabasi
e-mail: yusufjonovnarayxona@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolaning maqsadi gender zo‘ravonlikning huquqiy jihatlarini tahlil qilish, xalqaro va milliy qonunchilikdagi muammolarni aniqlashdan iborat.Tadqiqotda solishtirma-huquqiy tahlil usuli qo‘llanilgan bo‘lib, gender zo‘ravonlikka qarshi qabul qilingan xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarning samaradorligi va boshqa davlatlarning tajribasi o‘rganilgan.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni ta’minlash va gender zo‘ravonlikka qarshi huquqiy choralarni takomillashtirish lozim. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston uchun gender zo‘ravonligining oldini olish yo‘lida qonunchilikni mustahkamlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Калит сўзлар. gender tenglik, gender zo‘ravonlik, huquqiy himoya, xalqaro huquq, CEDAW konvensiyasi, Istanbul konvensiyasi

Аннотация. Цель данной статьи – анализ правовых аспектов гендерного насилия и выявление проблем в международном и национальном законодательстве. В исследовании применён сравнительно-правовой метод анализа, изучена эффективность международных и национальных правовых документов, принятых для обеспечения гендерного равенства и борьбы с гендерным насилием, а также опыт других государств. Результаты исследования показывают, что необходимо совершенствование правовых мер по обеспечению гендерного равенства и противодействию гендерному насилию. Основываясь на международном опыте, Узбекистану важно усилить законодательство и повысить эффективность деятельности правоохранительных органов в вопросах предотвращения гендерного насилия.

Ключевые слова. гендерное равенство, гендерное насилие, правовая защита, международное право, конвенция CEDAW, Стамбульская конвенция

Annotation. The purpose of this article is to analyze the legal aspects of gender-based violence and identify issues within international and national

legislation. The study employs a comparative legal analysis method, examining the effectiveness of international and national legal documents adopted to promote gender equality and combat gender-based violence, as well as the experiences of other countries. The research findings indicate that legal measures to ensure gender equality and combat gender-based violence need further improvement. Based on international experiences, it is crucial for Uzbekistan to strengthen its legislation and enhance the effectiveness of law enforcement agencies in preventing gender-based violence.

Keywords. gender equality, gender-based violence, legal protection, international law, CEDAW convention, Istanbul convention

Zamonaviy dunyoda gender tenglik tushunchasi xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatdagi mavqeyini qonuniylik asosida biologik kelib chiqishdagi farqlarsiz belgilash bilan tavsiflanadi [1]. O‘z navbatida gender tengsizlik inson huquqlarining buzilishiga olib keluvchi muammo hisoblanadi. Gender zo‘ravonlik shaxsning gender identifikatsiyasi yoki qabul qilingan jinsi asosida unga nisbatan sodir etiladigan har qanday zo‘ravonlik harakatidir[2]. Bu butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va uzoq yillardan beri davom etayotgan muammo bo‘lib, har qanday yoshdagi, madaniyatdagi va ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan insonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ayol va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik gender zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan va shu bilan birga eng kam ko‘rinadigan shakllaridan biridir. Ayollarning jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini cheklash, ularni ta’lim, ish bilan ta’minlash, siyosiy va hukumat qarorlarini qabul qilishda to‘liq va teng ishtirok etishiga to‘sqinlik qilish, ya’ni gender tengsizlik asosida kamsitish butun dunyoda keng tarqalgan. Gender tengsizlik asosida kamsitish jamiyatdagi patriarxal munosabatlar va genderga oid ijtimoiy normalar natijasida yuzaga keladi, u jismoniy, psixologik va jinsiy tazyiq shakllarida namoyon bo‘ladi. “Jamiyatning har qanday qismiga nisbatan istalgan ko‘rinishdagi zo‘ravonlik uning har bir vakiliga o‘z ta’sirini o‘tkazadi”, deya ta’kidlaydi BMT Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska. Sababi, gender zo‘ravonlik ijtimoiy adolatsizlik va gender tengsizlikni yuzaga keltiribgina qolmay, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu muammo nafaqat ijtimoiy balki, huquqiy jihatdan ham chuqur o‘rganilishi lozim.

BMTning “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish to‘g‘risida”gi deklaratsiyasida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik quyidagicha ta’riflanadi: “Jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan yoki olib kelishi ehtimoli bo‘lgan har qanday gender asosidagi zo‘ravonlik harakati, jumladan, bunday harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki u xoh jamoat joyida, xoh xususiy hayotda sodir bo‘lishidan qat’i nazar, erkinlikdan mahrum qilishdir”[3]. Gender zo‘ravonlik shaxs yoki guruhga ularning jinsi, jinsiy orientatsiyasi yoki gender identifikatsiyasi sababli yetkaziladigan har qanday zararli harakatni anglatadi. Zo‘ravonlik jismoniy, ruhiy yoki jinsiy xarakterdagi zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan harakatlar, bunday harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash va erkinlikni buzishning boshqa shakllarini o‘z ichiga oladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Gender zo‘ravonlikning yuzaga kelishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu omillarni to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

Madaniy omillar – gender stereotiplari, an’anaviy patriarxal tuzum va ijtimoiy me’yorlar;

Huquqiy omillar – qonunchilikdagi kamchiliklar, huquqni muhofaza qilish organlarining samarasizligi;

Iqtisodiy omillar – iqtisodiy qaramlik, ish o‘rinlari va moliyaviy mustaqillikning yetishmasligi;

Siyosiy omillar – gender masalalariga e’tiborning pastligi, gender tengligini ta’minlovchi davlat siyosatining zaifligi [4].

Gender zo‘ravonlik murakkab muammo bo‘lib, u turli shakllarda namoyon bo‘ladi.Yevropa Kengashining Istanbul konvensiyasi zo‘ravonlikning quyidagi turlarini belgilaydi: psixologik zo‘ravonlik; ta’qib qilish; jismoniy zo‘ravonlik; majburiy nikoh; jinsiy zo‘ravonlik, shu jumladan, zo‘rlash; ayollar jinsiy a’zolarining majburiy kesilishi; majburiy abort va sterilizatsiya; jinsiy ta’qib; zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlash yoki sodir etishga urinish [5].

Bugungi kunda xalqaro va milliy miqyosda gender tenglikni ta’minlash va gender zo‘ravonlikka barham berish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda qator huquqiy hujjatlar, turli xil fond va dasturlar qabul qilinmoqda:

- BMTning gender tengligi hamda xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga mo‘ljallangan bo‘linmasi UN Women tashkil etildi;
- Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konventsiya (1979);
- 1993-yilda BMTning Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiya;
- 1996-yilda Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish bo‘yicha harakatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun BMT Trast fondi;
- Yevropa kengashining ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi (Istanbul konvensiyasi; 2011-yil 11-may);
- BMT xavfsizlik kengashining Ayollar, tinchlik va xavfsizlik to‘g‘risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasi (2000);
- Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va uni bartaraf etish bo‘yicha harakatlarni safarbar etishga qaratilgan “Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka birgalikda barham beramiz” (UNiTE) kampaniyasi;
- 2017-yilda BMTning “Spotlight” tashabbusi va boshqalar.

Qayd etish joizki, 1970-2022-yillarda dunyoda gender tengligini oshirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi, umuman olganda, mamlakatlarda xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlovchi 2000 dan ortiq qonun qabul qilindi [6] Shuningdek, har yili “Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” (#OrangeYourWorld) xalqaro kampaniyasi 25-noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kunidan 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kuniga qadar o‘tkazilib kelmmoqda [7].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar jinsi, irqi, millati, dini va boshqalardan qat’i nazar, barcha insonlarning huquqlarini himoya qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1979-yilda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish

to‘g‘risida konvensiya (CEDAW) ayollar huquqlari himoyasi bo‘yicha eng muhim hujjatdir.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish majburiyatlarni oladi va CEDAW qo‘mitasiga bu boradagi chora-tadbirlar haqida muntazam hisobot taqdim etishlari kerak. “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konventsiya umume’tirof etilgan ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligiga erishish borasidagi “jahonning global konstitutsiyasi” sanaladi [8].

Ammo shunga qaramay, gender zo‘ravonlik butun dunyoda millionlab odamlarga ta'sir o‘tkazayotgan jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko‘ra, dunyodagi, taxminan, har uchinchi ayol o‘z hayoti davomida yaqin sherigi tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka yoki sherik bo'lmagan shaxs tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi. Bundan tashqari, ayollar o‘limining bo‘lgan qismi yaqin sheriklar tomonidan sodir etilgan zo‘ravonlik oqibatida yuz beradi [8]. Shuningdek, BMT ma’lumotlariga , bir yil davomida 15 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan har beshinchi ayol va qizlar turli ko‘rinishdagi zo‘ravonlikka uchraydi. Kamida 15 ta mamlakatda hozirgacha oiladagi zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik . BMT va Yevropa Ittifoqining Spotlight tashabbusi ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘ylab ayollarning 35% jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan;700 milliondan ortiq ayollar 18 yoshga to‘lmasdan turmushga chiqishga majbur bo‘lgan; Dunyo bo‘ylab odam savdosiga uchraganlarning 70%i ayollardir[9]. Bu raqamlar gender zo‘ravonlikning global miqyosdagi dolzarb muammo ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat zo‘ravonlikka qarshi kurashish va ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali choralarni amalga oshirishda davom etmoqda.

Xalqaro tajriba. Ma’lumki, AQSh, Kanada va bir qator Skandinaviya davlatlari zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha ko‘p yillik samarali faoliyati bilan ajralib turadi. Gender tengligi sohasidagi muvaffaqiyatli yutuqlari bilan tanilgan Shvetsiyada ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish amaliyoti dunyodagi eng ilg‘or tajribalardan biri sifatida e’tirof etilgan[10] Shvetsiyada mahalliy hokimiyat idoralari zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan ayollar va bolalarga yordam va himoya ko‘rsatishga qonunan majburdirlar. Ta’kidlash lozimki, AQSh, Fransiya, Polsha, Germaniya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Moldova kabi aksariyat davlatlarda oilaviy zo‘ravonlik jinoyat deb hisoblanadi. 2017-yilda Rossiya Federatsiyasida maishiy zo‘ravonlikni jinoiy yurisdiksiyasidan chiqarilgandan so‘ng oila va maishiy sohadagi jinoyatlar ko‘payib, jabrlanuvchilarni himoya qilish kafolatlarining yomonlashishiga olib keldi[11]. Bu esa gender zo‘ravonlikka qarshi jinoiy javobgarlik belgilanishi zarurligini yana bir isbot etdi. AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Polsha kabi davlatlarning Jinoyat kodekslari ham zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik bilan to‘ldirildi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari gender zo‘ravonligi va jinoyatlarning keskin ko‘payishi haqida xabardorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularning xavfsizligini ta’minlash uchun xorijiy mamlakatlarda zo‘ravonlik maxfiyligi tizimlari qo‘llaniladi. Ko‘pgina mamlakatlar anonim ishonch telefonlarini taqdim etadi, masalan, AQShda “National Domestic Violence Hotline” [12]

(1-800-799-SAFE), Buyuk Britaniyada “National Domestic Violence Helpline” [13] (0808 2000 247) va boshqa davlatlardagi shunga o‘xshash xizmatlari mavjud.

Gender zo‘ravonlikka uchraganlarning ko‘pchiligi ayollar ekanini hisobga olsak, ko‘p hollarda zo‘ravonlik haqida xabar berilmaydi yoki jamiyatdagi ba’zi streotiplarga ko‘ra “uydagi gap uydan” chiqmaydi. Shuni hisobga olgan holda ba’zi davlatlarda sudlar zo‘ravonlik qurbonlariga shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun sud jarayonlarida anonim ishtirok etishga ruxsat berishi mumkin.

1996-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oiladagi zo‘ravonlik to‘g‘risidagi Model qonunchiligining qabul qilinishi dunyoning turli mamlakatlarida himoya orderlarining joriy etilishiga olib keldi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada himoya orderlari “non-molestation order” sifatda tanilgan [14]. Kanadada “himoya orderi”[15] viloyat yoki hududiy sudlarda olinishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, ko‘pgina mamlakatlar sud tizimida gender tengligi tafovuti bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lib[16], bu sudyalarning hayotiy tajribasi va gender stereotiplari ishning natijasiga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda sudyalar uchun o‘quv seminarlar, dasturlar tashkil etilgan. Avstraliyada sudyalarning gender tengligi bo‘yicha o‘quv seminarlarida ishtirok etishi 1990-yilda “Tenglik va odil sudlovni amalga oshirish: gender, irq va sinf” seminari bilan boshlangan. 1994-yilda Oliy sud tomonidan “Sud tarozisi oldida tenglik” kitobi nashr etildi. Ushbu qo‘llanmani barcha adliya tizimi xodimlariga tarqatish bilan bir qatorda, sudyalar komissiyasi tomonidan sudlar uchun tashkil etilgan turli seminarlarda va har yili o‘tkaziladigan sudyalar konferensiyalarida gender madaniyatini oshirish mavzusi ko‘rib chiqiladi; Argentinada sudlar uchun ikkita asosiy gender ta’lim dasturlari mavjud – “Tenglik huquqshunosligi yo‘lida” (1997–2000) va “Argentina sud tizimida gender tengligini ta’minlash rejasi” (2010–yilda boshlangan) [17]. Birinchi dasturda 2000 nafardan ortiq sudya ishtirok etgan bo‘lsa, ikkinchi dastur mamlakatning barcha sud tarmoqlari uchun majburiy hisoblanadi; Yevropa kengashi va Yevropa ittifoqining “Sharqiy hamkorlikning oltita davlatida (Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Moldova Respublikasi, Ukraina va Belarus) xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash” loyihasi doirasida “Sudyalar va prokurorlar uchun xotin-qizlarning odil sudlovga kirishini ta’minlash bo‘yicha o‘quv qo‘llanma”[18] kitobi Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudida shikoyatlarni hal qilish misollari va keyingi tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda har yili 40 000 ga yaqin gender zo‘ravonlik hodisasi qayd etiladi. Gender zo‘ravonlik jabrdiydalarini “odam” sifatida emas, balki “xotin” yoki “ona” sifatida qabul qilish ayollarning jamiyatdagi stereotip roli tufayli gender zo‘ravonlik bilan bog‘liq muammo yanada chuqurlashdi. O‘zbekistonda gender zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan turi oilaviy zo‘ravonlik hisoblanadi: 2023-yilning dastlabki yetti oyi davomida 21 871 nafar ayol himoya orderiga murojaat qilgan bo‘lib, ularning er va qaynona kabi oila a’zolaridan himoyaga muhtoj bo‘lgan [20].

Bu faktlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganishi va tatbiq etishi lozim. Zero, “BMT-ayollar” tashkiloti rahbari Sima Baxus ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish mumkinligini ta’kidlaydi: “Bizga kuchli qonunchilik, ma’lumotlar to‘plamini yaxshilash, hukumatning mas’uliyatini oshirish,

bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va ayollar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari va institutlarini ko‘paytirish kerak”.

Xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan, shuningdek, BMT tomonidan O‘zbekiston uchun gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasidasigi tavsiyalaridan kelib chiqib O‘zbekistonda gender zo‘ravonlikka qarshi bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, gender tenglikni ta’minlash, gender zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qindi. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari bu borada alohida e’tiborga loyiq. Shuningdek, 2021-yil 28-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi va uning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining 561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, himoya orderi tazyiq va zo‘ravonlik qurboni davlat tomonidan himoya qilishni ta’minlovchi hujjatdir. Himoya orderi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha individual chora turlaridan biri sifatida tatbiq etildi.

BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasining O‘zbekiston hukumatiga gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi tavsiyasiga muvofiq gender zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yangi 1261-modda [21] (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) qo‘shildi.

O‘zbekiston Respublikasida gender zo‘ravonlikka qarshi qaratilgan harakatlar besamar ketmadi, albatta, ular natijasida qator muvaffaqiyatlarga erishildi:

1. Erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq ishlash huquqiga ega bo‘lishi kerak, degan qarash ikki baravar kamaydi (60% dan 30% gacha). Bundan tashqari, 100% erkak ishtirokchilar endi ayollar uchun biznesda imkoniyatlarni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlashlarini bildirishgan, 80% ayollar esa o‘z daromadlariga ega bo‘lish imkoniyatini ko‘rib chiqmoqda.

2. Jinsiy sherigiga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yish darajasini pasaytirdi: “erkak o‘z xotinini kaltaklashi mumkin” degan fikrga qo‘shilish 67% ga kamaydi.

3. “Siyosatda ayollar uchun ko‘proq imkoniyatlar bo‘lishi kerak” g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash 65 foizdan 85 foizga ko‘tarildi, shuningdek, ayollar erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishi demokratiya uchun zarur degan fikr 20 foizdan 50 foizgacha o‘sdi. Bundan tashqari, ayollarning oliy ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash 90 foizdan oshdi.

4. Aralashuvdan so‘ng ishtirokchilarning 85 foizi erlarining ko‘proq uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘z zimmalariga ola boshlaganliklarini ma’lum qildilar. Bu oilada gender rollarining sezilarli darajada o‘zgarganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ishtirokchilarning 80 foizi gender tenglik masalalarini muntazam ravishda muhokama qilishni boshlashgan.

5. Ayollar uchun namuna bo‘lgan shaxslar, diniy rahbarlar va jamoat arboblari, ayniqsa ayollar orasida, muammoga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Nufuzli jamoatchilik fikri yetakchilarini jalb etish orqali amalga oshirilgan harakatlarning muvaffaqiyati

jamiyatni gender tengligini rivojlantirishga jalb qilishning qudratini namoyon etdi[22].

Ko‘rib turganimizdek, xalqaro va milliy miqyosda gender zo‘ravonlikning oldini olish, gender tenglikni ta’minlash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda, ammo bu sohada harakatlarni davom etish lozim. O‘zbekiston Respublikasida sudyalar, prokurorlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun hujjatlariga rioya etishga alohida e'tibor qaratish lozim. “Ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik bizning zamonamizning eng katta muammolaridan biri bo‘lib, biz uning yechimini izlashda davom etishimiz kerak”, deydi BMT Bosh kotibi Antonio Guterres. Sababi xalqlar ongiga singib ketgan patriarxal qarashlar, “uydagi gap”ning uyda qolishi singari streotiplar tufayli gender zo‘ravonlik yoki oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari hali-hanuz ko‘plab uchramoqda. UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade: “Ayollar va bolalar, ayniqsa qizlar har kuni zo‘ravonlikdan aziyat chekmoqda va bu, afsuski, maqbul, normal, yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan va “oilaning ishi” deb qaraladi. Zo‘ravonlik holatlarining oldini olish mumkin. Zo‘ravonlikka barham berishda har kimning o‘rni bor. Odamlarning zo‘ravonlikka munosabatini o‘zgartirish, jazosiz qolishga chek qo‘yish, ijobiy tarbiya me’yorlari va amaliyotini targ‘ib qilish, jabrlanganlarga malakali yordam ko‘rsatish zarur”. Gender zo‘ravonlikka qarshi kirashish ishlari uzliksiz izchil davom ettirish zarur, sababi jamiyatning har qanday qismiga nisbatan ishlatilgan har qanday ko‘rinishdagi zo‘ravonlik jamiyatning har bir a'zosiga ta'sir o‘tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Gender tengligi va gender zo‘ravonligi savol va javoblarda” to‘plam. Toshkent, 2024, 10-bet.

2.

3. .

4. Gender identity, gender-based violence and human rights. // Chapter-1

5. Council of Europe Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (Istanbul Convention), Article 3,

6. Группа Всемирного банка, «Женщины, бизнес и закон 2023» // ISBN (electronic): 978-1-4648-1945-2// https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b60c615b-09e7-46e4-84c1-bd5f4ab88903/content

7. 16 дней активных действий против гендерного насилия.

8.

9.Source:

10. Exploring Best Practices in Combatting Violence Against Women: Sweden.

P.16.

11. Дело «Туникова и другие против России» // https://hudoc.echr.coe.int/eng# {%22itemid%22: [%22001-213869%22]}

12.

13.

14.

15.

16. U Schultz and G Shaw, Gender and judging, 2013, p. 3

17. Beatriz Kohen, Gender training for the judiciary in Argentina, 2014

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

18.

19. Bimali Amerisekere “O‘zbekiston misolida yuridik yordam ko‘rsatishda gender jihatlarni hisobga olish nima uchun muhim”, 3 December 2024.

20.

21. BMT Taraqqiyot Dasturining gender tenglikni targ‘ib qilish uchun bixevioral tahlil bo‘yicha tajriba hisoboti, 11-oktabr, 2024